

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot
akademiyasi



Toshkent davlat
stomatologiya instituti

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya
instituti

www.tsdi.uz

Bosh muharrir: t.f.d., professor A.Q.Shadmanov

Tahririyat a'zolari: professor F.L. Azizova, t.f.d., professor Sh.A. Boymurodov, professor S.D. Norqulov, professor Z.M. Muxamedova, professor D.T. Norqulov, professor U.M. Abilov, dotsent F.S. Atamuratova, dotsent S.G. Alimova

**“TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI
O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI, 2023-yil 26-may.**

TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIGA IJTIMOIY FANLAR O'QITILISHI MUHIMLILIGI

Xurshida Xasanovna Berdiyeva, Farida Jo'rayevna Shokirova
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

ANNOTATSIYA

Bugun zamonamiz shu darajada shiddat bilan rivojlanib bormoqdaki, bunda qaysidir bitta soha mutahassis bo'lishning o'zi yetarli emas. Ilgari raqamli texnologiyalar hozirgi zamondagidek rivojlanmaganligi sababli insonlarda yashash tarzi ham hozirgidan keskin farq qilgan, odamlar bir-biri bilan kamroq muomalada bo'lgan, negativ ma'lumot oqimi kamroq bo'lganligi uchun havotirlari ham kamroq bo'lgan. Bunday vaziyatlarda ma'naviy qashshoq insonlarda tezda depressiyaga berilish, ruhiyatida o'zgarishlar kuzatilayotganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, o'sib-ulg'ayotgan yosh avlodning stresslarga bardoshliligin oshirish va odamlar bilan muomalada ehtiyyotkor bo'lishlarida ijtimoiy fanlar o'rni beqiyos, bu olyi ta'limda ham juda muhim.

Kalit so'zlar: ijtimoiy fan, ma'naviyat, komil inson, jamiyat, millat, zamon.

ВАЖНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК СТУДЕНТАМ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Хуршида Хасановна Бердиева, Фарида Джораевна Шакирова
Ташкентская медицинская академия

АННОТАЦИЯ

Сегодня наше время развивается настолько стремительно, что, недостаточно быть специалистом в одной области. Поскольку цифровые технологии не были развиты так, как сейчас, образ жизни людей кардинально отличался от нынешнего. Ни для кого не секрет, что в таких ситуациях духовно бедные люди быстро впадают в депрессию, наблюдаются изменения в их психике. В частности, неоценима роль социальных наук в повышении стрессоустойчивости и осторожности в общении с людьми молодого поколения, а также очень важна в высшем образовании.

Ключевые слова: обществознание, духовность, совершенный человек, общество, нация, время.

Ko‘pchilik insonlar ongli umrining o‘ndan to‘qqizi rizqi-ro‘z harakati, oila parvarishi bilan o‘tadi. Ammo insonning bu yorug‘ dunyodagi vazifalari faqat shundan iborat desak, yetarli bo‘lmash. Buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy "Fozil shahar ahlining qarashlari" kitobining 26-bobida yozadi: "O‘z tabiatiga ko‘ra har bir inson shunday tuzilganki, u o‘z mavjudligini ta‘minlash va komil martabaga erishish uchun juda ko‘p narsalarga ehtiyoji bor. Bu narsalarni uning bir o‘zi hosil qila olmaydi va ularga erishish uchun muayyan bir kishilik jamoasiga ehtiyoj sezadi. Bu jamoaning har bir a’zosi o‘ziga va o‘zgalarga zarur bo‘lgan biror-bir mahsulot, ashyo yoki xizmatni ta‘minlaydi va natijada har bir kishining ehtiyojlari to‘liq qondirilish imkonini paydo bo‘ladi" [1,303]. Shu ma’noda bunday jamoa mакtab, keyin esa oliy talim muassasi desak, adashmagan bo‘lamiz. Bunday jamoaning har bir a’zosi bir-biriga nisbatan burchlidir. Agar bunday jamoada har bir inson haq oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri anglab, kamolot sari o‘zi intilar ekan, o‘zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko‘makdosh bo‘lishga astoydil urinsa, natijada "fozil shahar" (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi.

Har bir inson bu yorug‘ olamda halol-pok umr kechirishi uchun atrof voqelik, ya’ni ijtimoiy muhit nisbatan muvofiqroq yoki nomuvofiqroq bo‘lishi mumkin. Halol rizq topish, o‘zi va oilasi iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash insonning shaxs sifatidagi eng birinchi vazifasi bo‘lsa, uning ikkinchi muhim vazifasi o‘zi yashab turgan ijtimoiy hayotni takomillashtirish ishida ishtirok etishdir. Ijtimoiy hayot bugungi sharoitda yagona davlat hududida ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan o‘z qonun-qoidalariga ega. Ana shu muayyan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida umummilliy farovonlik va yuksalishi yo‘lida faol ishtirok etish vazifasini fuqarolik mas’uliyati deyish mumkin. Odatda ko‘pchilik halol rizq topish va oila tashvishlarini hal qilish vazifasini o‘z gardanida deb biladi. Ammo fuqarolik mas’uliyatiga ko‘p ham e’tibor bermaydi. Diniy ibora ishlatsak, go’yo fuqarolik mas’uliyati "farzi kifoya"ga o‘xshab qabul qilinadi. Kimdir jamiyat kamoloti uchun bosh qotirayaptimi, demak, bizga ish qolgani yo‘q, deb hisoblanadi. Davlat boshlig‘i (u shohmi, sultonmi – qat’iy nazar), vazirlar, turli daraja amaldorlar, qozilar (sudyalar), ya’ni davlat va jamiyat ishlarini bajarish bevosita mansab vazifasiga kiruvchi shaxslarga jamiyatni takomillashtirish mas’uliyati ham to‘liq yuklab qo‘yiladi-da, jamiyatning boshqa a’zolari "o‘z bola-chaqa tashvishi, ro‘zg‘or g‘amida" yuraveradilar. Bu ham bir jamiyat. Ammo fuqarolari ruhida ijtimoiy faollik, mas’uliyat bo‘lmasa, bu jamiyatning komillik darajasi na Forobiy orzu qilgan "fozil odamlar shahri" va na bugungi ideal "fuqarolar jamiyat" talablariga mutlaqo javob bermaydi. Bunday jamiyatda saylovlari

o'tkazilishi, parlament tashkil topishi, davlat va hukumatning turli daraja arboblari saylab qo'yilishi mumkin. Ammo bunday jamiyatning oddiy saylovchisi saylovda nomzodi qo'yilgan bir necha arbobdan qaysisi o'zi da'vo etayotgan o'ringa eng munosib ekanligi haqida voqelikka mos va mantiqiy dalillangan o'z xulosasiga ega bo'lmaydi. Demak, bunday sharoitda davlatning mas'ul maqomlariga kim saylanib qolishi ko'pincha tasodif orqali hal qilinadi, turli siyosiy o'yinlar tufayli yuz berishi ham mumkin. Agar Allohning inoyati bilan yaxshi va munosib kishi saylovda yutib ketsa, xalqning omadi, ammo shunday bo'lmasa-chi? Yana ko'pchilik "o'z bala-chaqasi g'amidan, turmush tashvishidan" bo'lagini o'ylamagan insonlar boshlariga kulfat tushsa, u yoki bu amaldorning "adolatsizligidan" shikoyat qiladilar, zamondan, rahbarlardan noliydarlar, kimlardandir najot kutadilar. "Men shu kungacha faqat o'zimni o'yladim-ku, jamiyat qayoqqa ketayotgani bilan bir pullik ishim bo'lmedi-ku, endi birov meni o'ylashi kerak deb da'vo qilishga nima haqqim bor?" deb o'ziga savol bermaydi.

Balki bizning oxirgi 5 asr davomida boshimizga tushgan savdolarning sababi ham ayni shu holatda yashirindir. Mahdumi A'zam - Mavarounnah tasavvufining so'nggi ulug' nazariyotchisi - suffiyning, ya'ni ma'naviy yetuk kishining siyosatga faol aralashuvini joiz topgan edi. Ammo, nazarimda, XVII-XVIII asrlarda, ya'ni Yevropa va Amerika xalqlari ijtimoiy-siyosiy sohada faollashuvi astoydil avjlangan davrda bizning xalqlarimiz ko'pchiligi - xunuk ibora bo'lsa ham balki qo'llash kerakdir - "ijtimoiy-siyosiy tanballik"ka, harakatsizlikka berildilar. Aniqrog'i, ijtimoiy kamolot yo'llarida sustkashlik ko'rsatdilar. Natija ma'lum. Shu sababli har bir O'zbekiston fuqarosining yurt mustaqilligini mustahkamlash, millat taqdiriga kuyunchaklik bilan munosabatda bo'lishiga erishish orzusida tinib-tinchimagan Prezidentimiz har bir bob, har bir suhbatida bizni faollikka, ijtimoiy fidokorlikka undaydi.

Yana ustozি Soniyga murojaat etamiz: "Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar - fozil shahardir va saodatga erishish maqsadida bir-biriga yordam beruvchi insonlar jamoasi - fozil jamoadir. Barcha shaharlari saodatli bo'lish yo'lida bir-biridan yordamini ayamaguvchi xalq (millat) - fozil xalq, fazilatli millatdir. Shunday ravish bilan agar butun olam ahli bir-biriga saodat yo'lida xolis ko'maklashuvga tayyor bo'lsa, kurrai zamin fozil insonlar makoniga aylanadi" [2,305]. Ushbu fuqarolik mas'uliyatini to'liq anglab yetmas ekanmiz, bizning shaxs sifatidagi ma'naviy kamolotimiz ham tugallik kasb etmaydi. Ma'naviy kamolotga erishishimiz uchun esa ijtimoiy fanlar (ma'naviyat, falsafa, etika-estetika, nutq

madaniyati, tilshunoslik, milliy g'oya, O'zbekiston tarixi, fuqarolik jamiyati, dinshunoslik, pedagogika, psixologiya o'rni beqiyosdir.

"Agar kimdir, ma'naviyat masalasi - bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlilik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir", deydilar Prezidentimiz o'z nutqlarida. Shuning uchun Toshkent tibbiyot akademiyasida talabalarga ijtimoiy fanlar o'qitilishi barobarida, har haftaning juma kunlari professor o'qituvchilar tomonidan har bir kafedrada ma'naviyat soatlarini o'tkazish tashkillashtirilganligi, bezizga emas.

REFERENCES

1. Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма-ата, 1972, с. 303. (O'zbekcha nashrda ayni shu bob va yana bir qator boblar tushib qolgan).
2. Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма-ата, 1972, с. 305.

CONTENTS

MUNDARIJA

- 27.** Turdimurodov, B. Q. (2023). NOAN'ANAVIY TAQDIMOTLAR YARATISH. ELEKTRON DARSLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 135-138.
- 28.** Abduraxmanov, S. (2023). MENEJMENT FANINING YUTUG' VA KAMCHILIKLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 139-142.
- 29.** Бердиева, Н. А. (2023). СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОКОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 143-148.
- 30.** Бобоева, З. Н. (2023). ИЖТИМОЙ ҲАЁТДА ВА ТАЪЛИМДА ТИББИЙ ЭКОЛОГИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 149-152.
- 31.** Ермакаматов, У., & Сайдикаримова, К. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК В ВЫСШЕМ МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 153-155.
- 32.** Мадиярова, Ф. У. (2023). ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ И ДОСТИЖЕНИЕ ПОСТАВЛЕННЫХ ЦЕЛЕЙ В ИЗУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА МЕНЕДЖМЕНТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 156-158.
- 33.** Аскарова, Н. А. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ГУМАНИЗАЦИИ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 159-164.
- 34.** Сахновская, Е. Г., & Чемезов, С. А. (2023). АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ ТЕРМЕЗСКОГО ФИЛИАЛА ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ). *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 165-169.
- 35.** Эрназаров, Д. З. (2023). ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР УЙФУНЛИГИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 170-174.
- 36.** Berdiyeva, X. X., & Shokirova, F. J. (2023). TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIGA IJTIMOIY FANLAR O'QITILISHI MUHIMLILIGI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 175-178.
- 37.** Choriyev, N. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA G'AMHO'RLIK VA E'TIBORNING ISTIQBOLI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 179-183.
- 38.** Bozorov, S. I. (2023). NMDA RETSEPTORINING SOG'LOM VA ALKOGOL ISTE'MOL QILUVCHI INSONLAR XOTIRASIGA TA'SIRI BIOETIKA MISOLIDA. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 184-185.